



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

**“BOBURNOMA”DAGI INSONNI XARAKTERLOVCHI
IFODALARNING TURKCHA TARJIMADA
BERILISHI MASALASIGA DOIR
ON THE ISSUE OF PROVIDING TURKISH TRANSLATIONS OF
EXPRESSIONS CHARACTERIZING INDIVIDUALS IN THE
“BABURNAMA”**

Xudaybergenova Zilola Narbaevna

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Bartın universiteti professor

e-mail: zkhudaybergenova@bartin.edu.tr

ORCID: 0000-0003-1021-3053

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./PRVU4914](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./PRVU4914)

Annotatsiya. *Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari, ayniqsa, “Boburnoma” jahon ilm-fanida muhim o‘rin tutadi. Asar, ijtimoiy-siyosiy voqyealarni qamrab olish bilan birga, geografiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, etnografiya, tibbiyot, tarix va boshqa sohalarida qimmatli ma‘lumot manbai hisoblanadi. “Boburnoma” dunyoning 30 ga yaqin tillariga tarjima qilingan bo‘lib, bu uning mazmuni va uslubining boyligini ko‘rsatadi. Tadqiqotlarda “Boburnoma”ning o‘zbekcha va chet tillaridagi tarjimalari o‘rtasidagi til xususiyatlari, leksik birliklar va paremiyalarning qiyosiy tahlili olib borilgan. Shu bilan birga, “Boburnoma”ning o‘zbekcha va turkcha nusxalarini solishtirish, xulq-atvorni bildiruvchi ifodalarning tarjima aniq va bexato berilishi masalalari tarjimashunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, Boburning qarindoshlari, maslakdoshlari, hatto dushmanlarining tashqi ko‘rinishi, fe‘l-atvorini tavsiflovchi ifodalar ular haqida tasavvur uyg‘otish uchun yetarlidir. Mazkur maqolada Bobur asarining o‘zbekcha va turkcha nusxalarini solishtirish, insonlar xulq-atvorini ifodalovchi so‘zlar va iboralarning tarjima berilishi, tarjimonning mahorati, ko‘tarilgan masala yuzasidan mutarjimning muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligini aniqlash maqsad qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Bobur, “Boburnoma”, turk tili, tarjima, xulq-atvor, sifat, ibora, tasviriy ifodalar.*

Annotation. *The works of Zahiriddin Muhammad Babur, particularly «Baburnama», hold significant importance in the realm of global science and scholarship. This work serves as a valuable source of information, encompassing social and political events, as well as providing insights into geography, linguistics, literature, ethnography, medicine, history, and other fields. «Baburnama» has been translated into nearly 30 languages, highlighting the richness of its content and style. Research has been conducted on the linguistic*



features, lexical units, and comparative analysis of the translations of «Baburnama» in foreign languages. Furthermore, the comparison of the Uzbek and Turkish versions of «Baburnama,» particularly regarding the precise and accurate translation of expressions denoting behavior, is considered one of the pressing areas in translation studies. This is crucial as the expressions describing the appearances and behaviors of Babur’s relatives, allies, and even enemies are sufficient to evoke a clear image of them. This article aims to compare the Uzbek and Turkish versions of Babur’s work, examining the translation of words and phrases that express human behavior, assessing the translator’s skill, and identifying the successes and shortcomings of the translator concerning the raised issues.

Keywords: Babur, “Baburnama”, Turkish language, translation, behavior, phraseological units, expressions, descriptive phrases.

Jahon ilm-fani taraqqiyotida Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining ahamiyati kattadir. Xususan, “Boburnoma” XVI asrgacha bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy voqyealarni qamrab olgan, geografiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, etnografiya, tibbiyot, biologiya, tarix, ijtimoiy-siyosiy va davlatlararo munosabatlar kabi yigirmadan ortiq sohalar bo‘yicha qimmatli ma‘lumot beruvchi noyob manba hisoblanadi. Dunyoning o‘ttizga yaqin tilga tarjima qilinganligi asarning teran mazmuni, ta’sircha uslubi va qomusiy xarakteri bilan belgilanadi.

O‘zbekistonda «Boburnoma» tarjimalarining til xususiyatlari, tarjimada mutarjim mahorati, ayniqsa, milliy mentalitetga xos leksik birliklarni qiyosiy tahlil qilishga doir tadqiqot ishlari haqida so‘z borganda G‘.Salomov, N.Otajonov, S.Hasanov, M.Xolbekov, L.Xo‘jaeva, G‘.Xo‘jaev, S.Shukrullaeva, F.Salimova, A.Ibrohimov, R.Karimov, M.Sobirov, Z.Xolmanova, R.Shirinova, Sh.Hayitov, Z.Teshaboeva kabi olimlarning tadqiqotlarini qayd etish lozim [Otajonov, 1978; Xodjaeva, 1985; Xodjaev, 1985; Shukrullaeva, 1989; Xolbekov, 1991; Salimova, 1997; Salomov, Otajonov, 1996; Ibrohimov, 2001; Sobirov, 2002; Karimov, 2003; Xolmanova, 2009; Shirinova, 2017; Teshaboeva, 2017]. Mazkur ishlarda “Boburnoma”ning inglizcha, fransuzcha, nemischa, forschacha, hindcha hattoki yaponcha nusxalarining til xususiyatlari, asl matn va tarjima matnning qiyosiy tadqiqi amalga oshirilgan. Asarning turkcha tarjimasining qiyosiy tadqiqi D. Muhammadieva tomonidan amalga oshirgan bo‘lib, u «Boburnoma» turkcha tarjimasidagi paremiyalarni (maqol, matal va frazemalarning) qiyoslab, asarning turkcha tarjimasidagi paremiyalarni o‘zbekcha matn bilan struktur-semantik jihatdan tahlil va tasnif etadi, ayni onda paramiyalarning statistikasini ham hisoblaydi [Muhammadieva, 2021: 61-62].

Turkiyada ham “Boburnoma”ning tadqiqiga doir bir qator ishlar amalga oshirilgan. Ular orasida eng yirik tadqiqot Sh.Mesut tomonidan “Boburnoma”ning Qobil va Hindiston bo‘limlarining til xususiyatlariga



bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasi hisoblanadi [Mesut, 1993]. Bundan tashqari, “Boburnoma”dagi hayvon nomlari, juft va takroriy so‘zlar ham sifatlarning o‘rganilishiga doir magistrlik dissertatsiyasi yozilgan [Berbercan, 2008; Nimet, 2009; Çorbacı, 2012]. Shuningdek, Boburning Hindiston safari [Bilkan, 2002], “Boburnoma”da Hindiston tasviri [Bayram, 2004: 169-191], “Boburnoma”dagi ba’zi atoqli otlarning qo‘yilishi sabablari [Iztil, 2013: 1141-1148] asardagi folklor va etnografik unsurlari [Baydemir, 2010], asardagi tibbiy ma’lumotlar [Yurdakb, 2010] tahliliga oid maqolalar nashr etilgan. Biroq “Boburnoma” asarining o‘zbekcha va turkcha nusxalarini solishtirish, insonlarning xarakterini tavsiflovchi sifatlar hamda iboralarning qiyosiy tadqiqi amalga oshirilmagan. Mazkur tasviriy ifodalarning turkcha tarjimada berilishini tahlil etmagan. Shu sababli, “Boburnoma”ning turkcha tarjimasi bilan taqqoslash, tarjimada asl nusxadagi inson xulq-atvori, holati va xarakterini bildiruvchi so‘zlar, iboralar, ya’ni tasviriy ifodalarning aks etish holatini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

“Boburnoma”ning turkcha tarjimasi professor Rashit Rahmati Arat tomonidan 1943-1946-yillarda amalga oshirilgan bo‘lib, o‘sha yillarda ilk bor nashr etilgan. “Boburnoma”ning turkcha nusxasi 1970, 1985, 1986, 1987, 1989, 2000 yillarda qaytadan nashr etilgan. Shulardan 1943-1946 hamda 1987-yillardagi nashrlari «Vekayi», qolgan yillardagi nashrlari esa «Baburname» nomi bilan nashr etilgan [Muhammadieva, 2021: 61-62]. Tarjimon asarning turkcha nashrini yaratishda 1857-yilda N. Ilminskiy tomonidan e’lon qilingan Qozon bosmasi (Kir qo‘lyozmasi) hamda 1905-yilda A. Beverij tomonidan e’lon qilingan London nashri (Haydarobod qo‘lyozmasi) dan foydalangan [Hayitov, 2012: 29]. Boburning 1494-1529-yillar oralig‘idagi qariyb 35 yillik hayotidan bahs etgan bu asarda muallif otasi Umarshayxdan boshlab barcha karindosh-urug‘lari, yonveridagi maslakdoshlari, hatto dushmanlarining tashqi ko‘rinishi, xarakteri, fe’l-atvorini batafsil bayon etadi. Mazkur ma’lumotlar ham tarixiy, ham badiiy jihatdan muhim ahamiyatga egadir. Zero, bu ma’lumotlar vositasida Boburning qarindoshlari, uzoq-yaqinlari, do‘st-dushmanlarini anchagina yaqqol tasavvur qilish mumkin.

“Boburnoma”ning o‘zbekcha va turkcha variantlarining qiyosi shaxslar xulq-atvori, xarakterini tavsiflash uchun ishlatilgan sifatlar, iboralar va ifodalarning ko‘p o‘rinlarda aynan o‘girilganining guvohi bo‘lamiz. Odatda, tarjimon asl matnda biron-bir shaxsni tasvirlash uchun qo‘llanilgan so‘z va iboralarning muqobilini to‘g‘ri tanlaganini ko‘rish mumkin. Misol uchun, quyidagi matn tarjimasida qo‘llanilgan **munofiq**, **axloqsiz**, **ko‘rnamak** va **yaramas** sifatlarining turkcha muqobillarini bexato belgilaydi: **munofiq – münafık**, **axloqsiz – fâsik**, **ko‘rnamak – nankur**, **yaramas – yaramaz**.

Qiyoslang:

Asl nusxada:

*Yana biri Ali Mazidbek qavchin edi, ikki marta yov tarafga o'tib ketdi: bir marta Axsida va yana bir marta Toshkanda. **Munofiq, axloqsiz, ko'rganak va yaramas kishi edi** [Bobur, 2019: 25].*

Tarjimada:

*Ali Mezid Bey, koçin, bir defa Ahsi'de ve bir defa da Taşkend'de olmak üzere, iki defa isyan etti. **Münafık, fâsık, nankör ve yaramaz bir adamdı** [Babur, 2000: 21].*

Asarda Abdulali tarxonning qattiqqo'l va zolim, fosiq va dimog'dor kishi ekanligi qayd etiladi. Tarjimada bu ifodalar uchun **idarede muktedir, fakat zâlim, fâsık ve kibirli bir adam** so'z va iboralarini ishlatadi:

Asl nusxada:

*Yana biri Abdulali tarxon edi. U Darvesh Muhammad tarxonga yaqin qarindosh edi... Sahovati, muomalasi va mahkama yuritishi, tartib-tutumlari va bazmi podshohlarga xos edi. **Qattiqqo'l va zolim, fosik va dimog'dor kishi edi** [Bobur, 2019: 25].*

Tarjimada:

*Abdülali Tarhan, Derviş Muhammed Tarhan'in yakın akrabasından idi. Bahşışı, hediyleri, divan ve çalışma yerleri, ziyafet ve meclisi padişahlarinki gibi idi. **İdarede muktedir, fakat zâlim, fâsık ve kibirli bir adamdı** [Babur, 2000: 21].*

Tarjimada qo'llanilgan **idarede muktedir** iborasi va **zâlim, fâsık, kibirli** so'zlari asl matndagi so'zlarning to'laqonli muqobili bo'lib, tarjimonning mahoratini ko'rsatadi.

Mirg'iyos tag'oyi haqida quyidagi ma'lumot bildiriladi:

*Yana biri Mirg'iyos tag'oyi edi. U Alido'stning inisi edi... **Xushchakchak va hazilkash kishi, ammo axloqda tiyiksiz edi** [Bobur, 2019: 26].*

Tarjima esa quyidagi shaklda beriladi:

*Mir Gıyas Tagayî , Ali Dost'un küçük kardeşi idi. **Güler yüzlü ve şakacı bir adamdı. Fısktan korkmazdı** [Babur, 2000: 23].*

Asarda yozilishicha, Mirgiyos tag'oyi hushchaqchaq, hazilkash va axloqsizdir. Tarjima bilan qiyoslaganimizda, bu xususiyatlar aniq-tiniq ifoda etganligining guvohi bo'lamiz. Ya'ni o'zbek va turk tillaridagi **xushchakchak - g'lyer y'zly, hazilkash – şakacı** so'zlari bir-birining muqobili sifatida maydonga chiqadi. **axloqda tiyiksiz** birikmasi uchun **fısktan korkmaz** iborasini ishlatadi. **Fısk** so'zi “aşırı derecede günaha dalma, ahlaksızlık ve sefahat içindeki yaşamı betimlemek” – haddan tashqari gunoh qilishga berilmoq, axloqsiz va buzuq hayotni tasvirlamoq” uchun qo'llaniladi [GTS, 2026]. Demak, tarjimon foydalangan ibora asl ma'noni to'laligicha aks ettirgan, deyish mumkin

Muallif otasi Umarshayxning xulq-atvori haqida shunday yozadi:

***G'oyat sahovatli edi. Xulqi xam sahovaticha bor edi. Xushxulk, hazilkash, gapga chechan va shirinso'z kishi edi. Shijoatli va mardona kishi edi** [Bobur, 2019: 18].*

Turkcha nusxada:

3ok cümert ve cömert olduđu kadar da iyi huylu idi, iyi tabiatli, güzel ve tatlı dilli bir adamdı. Cesur ve mertti [Babur, 2000: 11]

Tarjimon Umarshayxning xulqiga oid parchani tarjima qilganida, ba'zi so'zlar va tasviriy ifodalar uchun turk tilidan ma'nosi mutanosib bo'lgan so'zlar hamda ifodalarni qo'llaydi. Masalan, asl matnda Umarshayxning sahovatli va go'zal xulqidan bahs etiladi. Tarjimada bu ifodalarning muqobili to'g'ri tanlanadi: **g'oyat sahovatli - 3ok cümert, xulqi xam sahovaticha bor edi – cömert olduđu kadar da iyi huylu idi.** Umarshayxning **shijoatli** va **mardona** ruhini tavsiflash uchun ham turkcha nusxada mutanosib muqobillar (**cesur – jasur, mert – mardona**) tanlangan.

Shu bilan birga, mazkur parchada tarjimon qoldirib ketgan so'zlar ham bor. Tarjima va asl nusxa solishtirilganida, *hazilkash, gapga chechan* ta'riflari berilmaganini ko'ramiz. Binobarin, turk tilida hazilkash ma'nosida **şakacı, espri ustası, mizahçı** so'zlaridan birini qo'llash maqsadga muvofiq edi. Shuningdek, “ince anlamlı, düşündürücü ve güldürücü, şakalı, zarif söz” – nozik ma'noli, o'ylantiradigan va kuldiradigan hazil, zarif so'z tushunchasini bildiruvchi **nökte** so'zidan yasalgan **nöktedan** so'zi mavjudki [GTS, 2026], aynan o'zbek tilidagi “gapga chechan” tasvirining ekvivalenti sifatida ishlatilishi mumkin edi.

Bobur Alido'st tag'oyi ismli shaxsga shunday ta'rif beradi:

Qushchi edi. Yaramas axloq-atvorli, baxil va fitnachi, badqovoq va munofiq, qaysar va qattiqso'z, yuzi sovuq kishi edi [Bobur, 2019: 25].

Turkchadagi tarjimasi quyidagi ko'rinishga ega:

Kuşçu idi. Ahlâk ve tavrı kötü idi. Kıskanç, fitneci, namussuz, münafık, kendini beğenmiş, sert sözlü ve soğuk yüzlü bir adamdı [Babur, 2000: 21].

Mutarjim Alido'st tag'oyi haqidagi ma'lumotlarni turk tilida asosan to'g'ri beradi: **yaramas axloq-atvorli – ahlâk ve tavrı kötü, baxil - kıskanç, fitnachi - fitneci, munofiq – münafık, qattiqso'z – sert sözlü, yuzi sovuq – soğuk yüzlü.** Ammo asl matndagi **badqovoq** so'zi turkcha nusxada aks etmagan. Buning o'rnida **namussuz -nomussiz, oriyatsiz, kendini beğenmiş – o'zidan mamnun, narsistik** sifatlari berilgan. O'zbek tilining izohli lug'atida yozilishicha, **badqovoq** so'zi “qovog'i soliq, xo'mraygan” ma'nosini anglatadiki [O'TIL-1, 2006: 138], turk tilida ayni ma'nolari bildiradigan **suratsız – badqovoq, asık suratlı – qovog'i soliq, somurtkan - ho'mraygan, asık yüzlü – qovog'i soliq, abus – badqovoq, çatık yüzlü – qovog'i osilgan, çatık kaşlı – qoshlari chimirilgan** kabi so'z va iboralardan birini tanlash maqsadga muvofiq bo'lar edi [GTS, 2026].

Muallif Hasan Ya'qubbekni ta'riflar ekan, **bolatabiat, iste'dodli, chechan, samimiy, mardona, ichi tor, kamhafsala, fitnaroq** sifatlarini qo'llagan. Tarjima esa bu sifatlarning muqobili o'laroq **mütevâzi, iyi tabiatlı, çevik, liyakatli, dar görüşlü, az kavrayışlı, fitneci** so'zlarini tanlaydi.

Qiyoslang,

Asl nusxada: *Yana bir amiri Hasan Ya'qubbek edi. Bolatabiat, iste'dodli, chechan va samimiy kishi edi... Mardona kishi edi. O'qni yaxshi otar, chavgonni yaxshi o'ynardi. Tuproqpallani yaxshi sachratar edi. Umarshayx mirzo fojiasidan so'ng u mening eshigimda eshikog'a buldi. Ichi tor, kamhafsala, fitnaroq kishi edi* [Bobur, 2019: 25].

Tarjimada: *Hasan Yekub Bey, mütevâzi, iyi tabiatlı, çevik ve liyakatlı bir adamdı. Cesur bir adamdı. Oku İyi atar, çöğeni iyi oynar ve birdir birde iyi sıçrardı. Ömer Şeyh Mirza'nın ölümünden sonra, benim kapımda sâhib-i ihtiyar o idi. Dar görüşlü, az kavrayışlı ve fitneci bir adamdı* [Babur, 2000: 21].

Umuman olganda, mutarjim tarjimasi muvaffaqiyatli hisoblash mumkin. Chunki asl matnda berilgan mazmun tarjimada aks etgan. Xarakterni tasvirlash uchun asl matnda berilgan sifatlardan ba'zilarining turk tilidagi muqobillarini to'g'ri qo'llagan: *iste'dodli – liyakatli, mardona – cesur*. Mutarjim Hasan Ya'qubbekni asl matndaga tasvirida berilgan biroz farqli shaklda *mütevâzi – kamtar, iyi tabiatlı – yaxshi tabiatli, çevik – chaqqon, liyakatli – layoqatli, dar görüşlü – dunyoqarashi tor, az kavrayışlı – kam tushunadigan, fitneci – fitnakor* dyeb ta'riflaydi. Natijada asl nusxadagi *bolatabiat, chechan, samimiy* so'zlari turkcha nusxada ifoda etmagan. *Bolatabiat – zocuksu, zocuk ruhlu, chechan – nıktedan, belagatlı, dokunaklı, samimiy – samimi, dırğst* kabi muqobillari mavjud bo'lgani holda, tarjimon bu so'zlarni ishlatmaydi. Turkcha nusxada Hasan Ya'qubbek haqida so'z ketar ekan, *dar görüşlü (dunyoqarashi tor), az kavrayışlı (oz tushunadigan, ahmoqroq, sodda)* iboralari, *fitneci (fitnakor, fitnachi)* so'zi ishlatilgan.

Avval asl nusxadagi tasviriy ifodalarga diqqat qilaylik: *Ichi tor* iborasi “birovga yaxshilik qilish u yokda tursin, yaxshilikni ravo ham ko'rmaydigan, birovga o'laqolsa bir nima bermaydigan, ziqna, qizg'anchiq odam”ga nisbatan ishlatiladi. Mazkur iboraning *ichi qora, ko'ngli qora, ko'ngli tor* kabi sinonimlari bor. O'zbek tidining izohdi lug'atida *ichi qora* iborasiga “dili buzuq, birovning baxt- quvonchini ko'rolmaydigan; hasadgo'y, birovga hyech narsani ravo ko'rmaydigan; sarf-xarajatni yoqtirmaydigan; xasis, qizg'anchiq, o'zgani ko'ra olmaydigan, hasadchi, rashkchi” deb ta'rif beriladi [O'TIL-2, 2006: 248-249]. Tarjimon tanlagan *dar görüşlü* iborasi esa “yeni ve de'gışik görüşleri benimsemeyen, anlayış göstermeyen (kimse)” (yangi va boshqacha qarashlarni qabul qilmaydigan, anglamaydigan (kimsa) deb sharhlanadi [GTS, 2026]. *Kamhafsala* so'zi “biror ishga astoydil yopishib harakat qilmaydigan; hafsalasi yo'q” degan ma'noni ifoda etadi. Avval berilgan bir misolda *hafsalasiz* so'zining turk tilidagi muqobili sifatida *meyilsiz (maylsiz), gayretsiz (g'ayratsiz, loqayd), rağbetsiz (rag'batsiz), isteksiz (istaksiz)* so'zlarini qo'llash mumkinligi qayd etildi. Tarjimon *az kavrayışlı – oz tushunadigan, ahmoqroq, sodda* iborasini qo'llab, yanglish yo'l tutadi. Natijada *fe'li tor, kamhafsala* Hasan Ya'qubbek tarjimada *dunyoqarashi tor, biroz ahmoq, dovdirroq odam* sifatida gavdalanadi.

Quyidagi jumlada Abobakr Qoshg'ariy qilmishlari uchun “zolim badkirdor” deya ta'riflanadi. Tarjimada esa faqat **zolim** so'zining muqobili **merhametsiz – marhamatsiz, shafqatsiz** keltirilgan.

*Mirzoxonni Muborakshoh Zafar qal'asiga chorlaganda Abobakr Qoshg'ariyning hujumiga yo'liqib, Shohbegim va Mehrnigor xonim hamda jami elning ahli va ayoli asirlikka tushib, u **zolim badkirdor** qamog'ida hayotdan ko'z yumdilar* [Bobur, 2019: 21].

*Mirza Han'ı Mübarek Şah Kal'a-i Zafer'e çağırdığı zaman, Eba Bekir Kâşgari'nin akıncularına rastgeldiler. Şah Begim ile Mihr Nigâr ve bütün onlar ile beraber bulunanların âileleri esir düşerek, o **merhametsizin** esaretinde feni dnyaya veda ettiler* [Babur, 2000: 16].

Asl matndagi **badkirdor** so'zi “razil, yomon ishlar qiluvchi, yomon, qabih harakatlar qiluvchi; yaramas odam” ma'nosiga ega [O'TIL-1, 2006: 135]. Turk tilida bu ma'noda **kötü kalpli – yomon qalbli, acimasız - shafqatsiz, sert yürekli – toshyurak , gönlü kara – ko'ngli qora, kötü niyetli – yomon niyatli, vahşi - vahshiy** kabi so'zlardan foydalaniladi. Zotan, tarjimon ham shu sifatlardan birini qo'llashi mumkin edi. Bir sifatning tushilib qoldirilishi natijasida tasvirlanayotgan shaxsning qiyofasini tarjimada to'la aks etmagan.

Bobur asarida yon-atrofidagi yaqinlarini ham tashqi ko'rinish, ham fe'l-atvori, ham qanday odam ekani, ham hayotida erishgan yutuqlari, salbiy va ijobiy xususiyatlari haqida ma'lumot beradi. Masalan, quyidagi matn parchalarida Hofiz Muhammadbek Do'ldoy va Xoja Husaynbekni shunday ta'riflaydi:

Asl nusxada:

*Yana bir amiri Hofiz Muhammadbek Do'ldoy bo'lib, Sulton Malik Qoshg'ariyning o'g'li, Ahmad Xojibekning inisi edi. ...Men Qobulni olganimdan burunroq u Makkaga o'tlanib, Hind yo'li orqali safar kildi. Yo'lda Tangri rahmatiga boribdi. **Faqir, kamgap va odmi** kishi edi.*

*Yana biri Xoja Husaynbek, **odmi va faqir** kishi edi. O'sha payt rasmiga ko'ra, bazmlarda qo'shiqlarni yaxshi aytar ekan* [Bobur, 2019: 26].

Endi ushbu matn parchasining turkcha nusxasiga diqqat qarataylik:

*Hâfiz Muhammed Bey Dulday , Sultan Melik Kâşgarî'nin oğlu Ahmed Hacı Bey'in küçük kardeşi idi. Ben Kâbil'i almadan biraz evvel, Mekke'ye gitmek için, Hind yolu ile sefer etmiş ve yolda Tanrı rahmetine kavuşmuştur. **Gösteriş sevmez, az sözlü ve sâde** bir adamdı.*

*Hoca Hıseyin Bey, **şen ve gösteriş sevmez** bir adamdı. O zamanın âdeti üzere, içki meclislerinde iyi koşma (koşuk) söylemiş* [Babur, 2000: 21].

Asl matndagi **faqir, kamgap va odmi** sifatlari tarjimon tomonidan **gösteriş sevmez, az sözlü ve sâde** so'zlari, **odmi va faqir** sifatlari esa **gösteriş sevmez, şen ve gösteriş sevmez** shaklida tarjima qilinadi. **kamgap - az sözlü, odmi - sbde** so'zlari o'zaro teng ma'noli muqobillardir. Ya'ni mutarjim asl matndagi xarakter bildiruvchi sifatlarning turk tilidagi muqobilini to'g'ri tanlagan. Biroq **faqir** so'zi uchun ishlatilgan **gösteriş sevmez, şen ve gösteriş sevmez** iboralari

“o'zini ko'z-ko'z qilishni yoqtirmaydigan, hushchaqchaqlikni sevmaydigan” insonlarni tavsiflash uchun qo'llaniladi. Ehtimol, bu iboralar **odmi**, **sodda** sifatlarning muqobili bo'la olar, lekin **faqir** so'zining muqobili bo'la olmaydi.

O'zbek va turk tillaridagi **faqir** va **faqir** so'zlarining ma'nolariga e'tibor qilaylik: O'zbek tilining izohli lug'atida **faqir** (arabcha “kambag'al, qashshoq, muhtoj”) so'zi quyidagi ma'nolarni ifoda etishi qayd etilgan: 1. Moddiy jihatdan nochor, kambag'al, qashshoq; muhtoj. *Amirning oshidan faqirning mushti yaxshi. (Maqol)*. 2 esk. Birinchi shaxs o'rnida yoki «men», «biz» olmoshlari bilan birlikda ishlatilib, so'zlovchining kamtarlik qilayotganini ifodalaydi: *Faqir u zotning suhbatdaridan bahramand bo'lgan paytlarimni eslasam, yuragim ezilur! (P.Qodirov)*. 3. Ko'chma ma'noda **faqir** so'zi **nochor**, **bechora**, **chorasiz** ma'nolarini anglatadi: *Kichik, xarob, faqir bir uy. Kampir va yosh bir xotin jo'xori tozalar edi (Oybek)* [O'TIL-4, 2008: 336-337].

Turk tilining izohli lug'atida **faqir** so'zining quyidagi ma'nolari mavjud [GTS, 2026]: 1. Bu so'zning bosh ma'nosi “yoksul, zengin karshiti” (yo'qsil, boy so'zining antonimi)dir: *En fakir köyler taştandır ve üstü kiremittir (Faliḥ Rıfka Atay)* (*Eng faqir qishloqlar toshdan qurilgan bo'lib, ustiga plitkalar yotqizilgan*). 2. Majoziy ma'noda “olmasi gerekenden az” (bo'lishi keragidan oz) tushunchasini bildiradi: *Seni fakir, soluk bir dekor izinde gürmek istemem. (Mahmut Yesari)*. (*Seni faqirona, rangi so'lg'in dekoratsiya ichida ko'rishni istamayman*). 3. O'zbek tilidagi muqobilidan farqli holda **faqir** so'zi ot sifatida “Hindistan'da yokluga, eziyete kendini alishtirmish dervish” (Hindistonda o'zini yo'qlikka, aziyatga o'rgatgan darvesh) mazmunini tashiydi. 4. **Faqir** so'zi majoziy ma'noda “zavalli, kimsesiz olan” (bechora, hyech kimi bo'lmagan) ma'nosini ifoda etadi: *Hey gidi kahpe felek, genzliklerine doymadan gitti fakirler. (Haldun Taner)*. *Eh, bevafo falak, bechoralar yoshliklariga to'ymasdan ketdilar*. 5. Faqir so'zi majoziy ma'noda, shuningdek, “kişinin alçak gönüllülük göstermek için kendisine verdiği san” (odamning kamtarligini ko'rsatish uchun o'ziga nisbatan qo'llaniladigan nom)ni anglatadi: *Fakir dün ziyaretinize geldimse de bulamadım. (Şemseddin Sami)*. *Faqir kecha ziyoratingizga kelgan bo'lsam ham, topolmadim*.

Demak, o'zbek va turk tillaridagi **faqir** va **faqir** so'zlari deyarli bir xilda sharhlangan bo'lib, asl matndagi mazkur so'zning tarjimada berilmasligi uchun hyech qanday asos yo'q.

Quyidagi misolda ham **faqir** so'zining turkcha tarjimada aks etmaganini ko'rish mumkin:

Sulton Ahmad mirzo kamgap, fakir va odmi kishi edi [Bobur, 2019: 25].

Sultan Ahmed Mirza, az suzly, sbde ve insaniyetli bir adamdi [Бабур, 2000: 21].

Mutarjim Sulton Ahmad mirzo haqida **az suzly** – **kamgap**, **sbde** – **sodda va insaniyetli** – **mehribon**, **muruvvatli** so'zlarini ishlatadi. Chunonchi,

tasvirlanayotgan shaxsning moddiy ahvoli yaxshi emasligi tarjimada ifodalanmagan.

Quyidagi matnda muallif Qanbarali mo'g'ul haqida ma'lumot beradi:

Asl nusxada:

*Yana biri Qanbarali mo'g'ul bo'lib, u otboqarlardan edi. Otasi viloyatga kelib, uzoq vaqt qassoblik qilgani uchun Qanbarali qassob der edilar. Yunusxon qoshida oftobachilik kildi. So'ngra bek bo'ldi. Mening qoshimda xiyla ulug' e'tibor topdi. Ish boshlanguncha g'ayrati sezilardi. Ishga kelganda **koltogayligi (ish qilmay o'zini ishlagan qilib ko'rsatish odati)** bor edi. **Sergap va bo'lar-bo'lmasni vaysaydigan kishi edi. Ma'lumki, ko'p gapirgan kishi behuda so'zlarni ko'p aytadi. Hafsalasizroq fe'li tor kishi edi** [Bobur, 2019: 26].*

Qanbarali haqidagi matnning turkchasi quyidagi ko'rinishdadir:

*Kanber Ali, mo'gul ve ahtaçulardan idi. Babası vilâyete girip birkaç defa kasaplık yaptığı için, Kanber Ali Sellâh derlerdi. Yunus Han nezdine ibrikçilik vazifesini görmüş ve sonra bey olmuş idi. Benim huzurumda da çok büyük riâyet görmüştü. İşe başlayıncaya kadar, ihtimamı iyi idi. İşe başladığı vakit, **vehme kapılırdı. Çok konuşur, fakat dağınık söylerdi. Malûmdur ki, çok söyleyen dağınık söyler. İstidadı az ve kafasız bir adamdı** [Babur, 2000: 22].*

Bu matnda Qanbaralining xulq-atvorini ifoda etish uchun qo'llanilgan so'z va ifodalarga to'xtalaylik. Masalan, Qanbaralining “*ishga kelganda koltogayligi (ish qilmay o'zini ishlagan qilib ko'rsatish odati) bor edi*”. Turkchada mazkur xususiyat “*işe başladığı vakit, vehme kapılırdı*” (*ish boshlagan vaqtida vahimaga tushardi*) deb tarjima qilingan. Bu misolda, ko'rib turganimizday, tarjimon Qanbaralining ishyoqmas, dangasa va yolg'onchi ekanligini tamomila boshqa sifat – vahimachi, qo'rqq deb yanglish ta'riflaydi. Qanbarali “*sergap va bo'lar-bo'lmasni vaysaydigan kishi edi. Ma'lumki, ko'p gapirgan kishi behuda so'zlarni ko'p aytadi*”. Qanbaralining bu odati turkchaga “*çok konuşur, fakat dağınık söylerdi. Malûmdur ki, çok söyleyen dağınık söyler*”. (*ko'p gapiradi, ammo tarqq gapiradi. Ma'lumki, ko'p gapirgan tarqq gapiradi*). Aslida tarjimon “*bo'lar-bo'lmasga vaysaydigan*” odatini aslida **bo'sh gapirmoq, behuda gapirmoq, gevezelik etmek – vaysamoq, ko'p gapirmoq, zevzeklenmek – vaysamoq, ko'p gapirmoq** fe'llari vositasida berish zarur edi. Jumlada qo'llangan “behuda” so'zning turkcha muqobili (bo'suna) bor bo'lsa-da, tarjimon yana “dağınık” (tarqq) so'ziga murojaat qiladi.

Dağınık so'zi turk tilining izohli lug'atida quyidagicha izohlanadi [GTS, 2026] 1. Geniş bir alana yayılmış olan (keng maydonga yoyilgan). 2. Bir arada olmayan, birbiriyle bağlantısız (bir yerda bo'lmagan, bir-biriga aloqasi bo'lmagan). 3. Düzeni bozuk, düzensiz, karışık olan; alaz taraz (tartibi buzilgan, tartibsiz, qorishiq bo'lgan): *Kadın yatağın içinde saçları dağınık, dimdik oturuyordu. (Peyami Safa). (Ayol yotoqda sochlari yoyilganacha tik o'tirardi)*. 4. Hoş görünmeyen, uyumsuz olan (yoqimsiz, mos bo'lmagan): *Bağırarak konuşmaktan hoşlanmaz, dağınık kıyafetle, kocasına bile görünmez bir*



kadın. (Memduh Şevket Esenal). 5. Majoziy ma'noda: Düşüncelerini toparlayamayan (xayollarini to'play olmagan, xayollari tarqoq: *Şu anda kafam çok dağınk. Shu onda xayollarim juda tarqoq.*

Demak, bu vaziyatda tarjimonning qo'llagan **dağınık** so'zining asl matnga mos emasligini ko'ramiz.

Bobur Qanbaralini “**hafsalasizroq fe'li tor kishi edi**” deya ta'riflaydi. O'zbek tilining izohli lug'atida **hafsala** “sabr, toqat, chidam, hafsala, ish-yumush, harakat va sh.k. ga bo'lgan mayl, istak; ishtiyoq” deya sharhlangan [O'TIL-5, 2008: 516-517]. **Hafsalasiz** sifati esa “ishga astoydil yopishmaydigan, qunt qilmaydigan, loqayd; mayl-rag'batini bo'lmagan, qunt bilan ishlay olmaydigan, tirishqoq bo'lmagan” ma'nosini anglatadi [O'TIL-5, 2008: 516-517]. **Hafsalasizroq** sifati turkcha tarjimada “**istidadi az**” (**iste'dodi oz**) deya ta'riflanadi. **Hafsalasiz** sifatining turk tilidagi muqobili o'laroq **meyilsiz (maylsiz), gayretsiz (g'ayratsiz, loqayd), rağbetsiz (rag'batsiz), isteksiz (istaksiz)** so'zlari mavjud bo'lib, tarjimon mazkur so'zlardan biridan qo'llasa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Asarda **fe'li (yoki yuragi) tor** iborasi qo'llanilar ekan, Qanbaralining 1) “o'zgaga hyech narsani ravo ko'rmaydigan; ziqna, baxil; 2) kishilarga yaxshilik, xushmuomala bilan munosabatda bo'lmaydigan, ziq munosabatli” odam ekani tasvirlanadi [O'TIL-4, 2008: 458-459]. **fe'li (yoki yuragi) tor** iborasi uchun esa turk tilida **cimri – xasis, nekes – baxil, kısmık – qizg'onchiq, mıhsıçtı – ziqna** kabi so'zlar va **eli sıkı – xasis** iborasi mavjud [GTS, 2026]. Demak, tarjimon tarjima jarayonida asl matndagi so'z va iboraning muqobilidan foydalanishi mumkin bo'lgani holda, yanglish muqobillarni ishlatgan.

“Boburnoma” o'z davrining geografiyasi, tarixi, urf-odatlarini, an'analari, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar haqida, ayni paytda Boburning uzoq-yaqin qarindoshlari, do'st va dushmanlari, maslakdoshlarining shakli-shamoyili, fe'l-atvori, ularning ahli oilalari haqida ham qimmatli ma'lumotlarni beruvchi noyob qomusiy asardir. Bu asar dunyoning 30 ga yaqin tillariga tarjima qilingan. Bu tarjimalarning asliyat mutanosibliigi masalasiga oid ba'zi tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay, “Boburnoma”ning o'zbekcha va turkcha nusxalarini qiyoslab o'rganishga doir sanoqli ishlar bor. Shu sababli “Boburnoma”ning turkcha nusxasini o'zbekcha nusxasi bilan solishtirish, asarni turk tilida qaytadan yaratishning muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz tomonlarini aniqlash masalasi tarjimashunoslik sohasining dolzarb masalalaridan biri sifatida maydonga chiqadi. Chunonchi, “Boburnoma” asarining turkcha tarjimasida xulq-atvorni bildiruvchi ifodalarning aniq va to'g'ri berilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tahlillar asl matndagi fe'l-atvorni ifodalovchi so'z va iboralarning ko'p hollarda turkchaga to'g'ri o'girilganini ko'rsatadi. Bu vaziyat tarjimon Reshit Rahmeti Aratning tarjimasini muvaffaqiyatli chiqqanini dalillaydi. Ammo, shu bilan birga, ba'zi hollarda asl matndagi tadqiqot ob'ekti bo'lgan tasviriy ifodalarning yanglish tarjima qilingani,

ba'zan esa bunday so'z va iboralarning asossiz ravishda tushirib qoldirilganligi kuzatiladi. Buning oqibatida asl matnda tasvirlangan shaxslarning turkcha tarjimada qayta gavdalantirish asnosida ayrim noaniqliklar yoki yanglish tasvirlarga yo'l qo'yilgan. Asl matndagi sifatlarning to'liq va aniq tarjima qilinmasligi esa insonlarning xarakterini to'g'ri tasvirlashda ma'lum bir muammolarni yuzaga keltiradi.

Qisqartmalar:

1. O'TIL-1 – O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. J.1. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
2. O'TIL-2 – O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. J.1. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
3. O'TIL-4 – O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. J.4. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
4. O'TIL-5 – O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. J.5. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
5. GTS, 2026 – G'ncel T'rkze S'zlyk. Ankara: TDK yayınlari. <https://sozluk.gov.tr/> [erishish sanasi: 26.01.2026].

Adabiyotlar:

1. Babur Z.M. *Baburname : Babur'un hatıratı*. Hazırlayan Reşit Rahmeti Arat. – 3. bsk. – Ankara: Kültür Bakanlığı, 2000.
2. Baydemir H. Baburname»de folklorizm ve etnografic unsürler/*Gazi T'rkıyat*. – Güz 2010. – Sayı 7. – S.107-133.
3. Bayram F. Garip Bir Memleket, Garip Bir Sultan: Baburname'deki Hindistan/*D'VÂN İlmî Araştırmalar*. – sy. 17 (2004/2). – S. 169-191.
4. Berbercan M. *Babur'un Hatıratında Geçen Hayvan Adları ve bunların Türk Dili Açısından Değerlendirilmesi*. Yüksek Lisans tezi. – İstanbul, 2008.
5. Bilkan, Fuat Ali. Divan ve Baburname Işığında Babur'un Hindistan Hayatı/*Bilig*, - Bahar 2002. – Sayı 21. – S 97-116.
6. Çorbacı E. *Baburname'de Sıfatlar*, Yüksek lisans tezi. – Aydın, 2012.
7. G'ncel T'rkze S'zlyk. – Ankara: TDK yayınlari. <https://sozluk.gov.tr/> [эришиш санаси: 26.01.2026].
8. Mesut Ş. *Gazi Zahirüddin Muhammed Babur – Baburname, Giriş-Metin (Kabil ve Hindistan bölümleri), Açıklamalı Dizin*, – İstanbul, 1993.(Marmara Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü, basılmamış Doktora Tezi).
9. Nimet C. *Gazi Zahirüddin Muhammed Bâbur Mirza'nın Eserlerindeki Ekilemeler*. Yüksek lisans Tezi. – Adana, 2009.
10. Özdil H. Bâbürnâme'de Bâbür'e Göre Bazı İsimlerin Koyulma Nedenleri / *International Journal of Social Science*. 2013. Volume 6. – Issue . – P. 1141-1148.



11. Yurdakъk M. Baburshah Eserlerında Tıbbıyatga Aıt Bılgıler /Çocuk sađlıđı dergisi. 2010. – № 5. – B.73-77.;
12. Бобур З. М. *Бобурнома*. -Тошкент: Ўзбекистон, 2019.
13. Иброҳимов А. «Бобурнома»даги ҳиндча сўзлар тадқиқи. Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2001.
14. Каримов Р. «Бобурнома»даги шеърлар хорижий таржималарининг қиёсий таҳлили. Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2003.
15. Муҳаммадиева Д. «Бобурнома» туркча таржимасидаги паремияларнинг қиёсий тадқиқи. – Тошкент: Тафаккур чаманзори, 2021.
16. Отажонов Н. «Бобурнома»жаҳон адабий жараёнида. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1994.
17. Отажонов Н. *Бадиий таржима ва илмий шарҳ*. Филол. фан ном. ... дисс. – Тошкент, 1978.
18. Салимова Ф. *Лексикографические и текстологические характеристики Восточно-тюркского словаря Паве де Куртейля и переводов «Бабурнаме»*. дисс.... канд. филол. наук. – Ташкент, 1997.
19. Саломов Ғ, Отажонов Н. *Жаҳонгаишта Бобурнома*. – Тошкент, 1996.
20. Собиров М. «Бобурнома»нинг инглизча таржималарида муаллиф услуби ва бадииятини қайта тиклаш муаммолари (Лейден-Эрскин, Беверижсва Текстон таржималарининг қиёсий таҳлили асосида). Филол. фан.ном. ... дисс. – Тошкент, 2002.
21. Гешабоева З. «Бобурнома»нинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликлар ва уларнинг миллий-маданий хусусиятлари. Фал.фан. филол.фан док. ... дисс. – Тошкент, 2017.
22. *Ўзбек тилининг изоҳли луғати*. 5 жилдлик. Ж.1. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
23. *Ўзбек тилининг изоҳли луғати*. 5 жилдлик. Ж.1. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
24. *Ўзбек тилининг изоҳли луғати*. 5 жилдлик. Ж.4. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
25. *Ўзбек тилининг изоҳли луғати*. 5 жилдлик. Ж.5. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
26. Ходжаев Г. *Воссоздание художественно-стилистического своеобразия произведений узбекской литературы в переводе на немецкий язык*. Автореф. дисс ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985.
27. Ходжаева Л. *Проблемы перевода: характер, стиль и интерпретация текста «Бабурнаме»*. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Андижан, 1985.
28. Холбеков М. *Узбекско-французские литературные взаимосвязи (в аспекте перевода, критики и восприятия)*. Автореф. дисс. ... канд. филол.наук. – Ташкент, 1991.



29. Холманова З. «Бобурнома» лексикаси тадқиқи. Филол.фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2009.
30. Ҳайитов М. “Бобурнома”нинг турк олимлари томонидан тадқиқ этилишиш/*Илмий хабарнома. АДУ.* – 2012. -№1. – Б.29-32.
31. Ширинова Р. Х. *Олам миллий манзарасининг бадиий таржимада қайта яратилиши.* Филология фанлари бўйича докторлик (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 201.
32. Шукруллаева С. *Воссоздание художественного своеобразия «Бабурнаме» в его английских переводах.* Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1989.